

**O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti va Toshkent
davlat yuridik universiteti o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida**

MEMORANDUM

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti va Toshkent davlat yuridik universiteti (*keyingi o‘rinlarda birgalikda “Tomonlar” deb yuritiladi*) kriminologik faoliyatni ilmiy va ekspertlik jihatidan ta‘minlash hamda huquqshunos kadrlarning ilmiy salohiyatini yanada oshirishda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida quyidagilarga kelishildi.

1-modda. Hamkorlikning maqsadi

Tomonlar o‘rtasida hamkorlik quyidagi maqsadda amalga oshiriladi:

- 1) O‘zbekiston kriminologiya ilmiy maktabining jahon miqyosida o‘z o‘rniga ega bo‘lishini ta‘minlash;
- 2) dunyo ilm-fani va texnologiyalari ilg‘or yutuqlaridan kriminologik faoliyat samaradorligini oshirishda foydalanish;
- 3) qo‘shma kriminologik tadqiqotlarni amalga oshirish uchun milliy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar grantlarini jalb etish;
- 4) kriminologik faoliyatni ilmiy va ekspertlik jihatidan ta‘minlashda o‘zaro uslubiy yordam ko‘rsatish;
- 5) huquqshunos kadrlarning ilmiy salohiyatini oshirishda hamkorlik qilish.

2-modda. Hamkorlik yo‘nalishlari

Tomonlar quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy hamkorlikni amalga oshiradi:

- 1) ilmiy tashriflarni amalga oshirish, an‘anaviy yoki onlayn shaklda ekspertlik uchrashuvlarini o‘tkazish orqali o‘zaro tajriba almashish;
- 2) kriminologiya sohasida birgalikda ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazish va ilmiy ishlanmalar tayyorlash;
- 3) Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan har yil yakunida o‘tkaziladigan “Jahon kriminologiyasining ilg‘or tajribalari” mavzusidagi xalqaro forumida Toshkent davlat yuridik universiteti olimlari ishtirokini ta‘minlash;
- 4) kriminologiya sohasida o‘zaro hamkorlikda ilmiy vakillik tadbirlarini (konferensiya, seminar, davra suhbatlari va boshq.) tashkil etish;
- 6) kriminologik tadqiqotlar natijalari bo‘yicha chop etilgan ilmiy, uslubiy va o‘quv nashrlarini o‘zaro almashish;
- 7) hamijrochi tashkilot sifatida yoki ilmiy-tadqiqot guruhi tarkibiga mutaxassis xodimini qo‘shish orqali kriminologiya sohasidagi ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini birgalikda bajarish;
- 8) mutaxassis xodimlarni haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi asosida Kriminologiya tadqiqot institutiga ishga jalb qilinishiga ko‘maklashish;

9) xalqaro va xorijiy tashkilotlarning grantlarini birgalikda olish, ular hisobidan qo'shma ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini bajarish;

10) hududlar va sohalarda jinoyatchilik salbiy tendensiyalari va omillarini bartaraf etish masalalarida ekspertlik jihatidan ko'maklashish uchun mutaxassis xodimlar ishtirokida seminar-treninglar o'tkazish;

11) Tomonlar o'rtasida ijobiy ish tajribalarini almashish, shu jumladan, o'zaro amaliyot va maslahatlashuvlarni amalga oshirish;

12) Tomonlarning mavjud ilmiy jurnallarida maqolalar chop etish imkoniyatlarini yaratish.

Tomonlar kelishuvga ko'ra, qonun hujjatlariga zid bo'lmagan hamkorlikning boshqa shakllaridan ham foydalanishlari mumkin.

3-modda. Hamkorlikni muvofiqlashtirish

Har bir Tomon Memorandumda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun o'zining mas'ul xodimini koordinator etib belgilaydi.

Har ikkala Tomonning koordinatori Memorandumning ijrosini ta'minlash uchun doimiy ravishda aloqada bo'ladi.

4-modda. Huquqiy masalalar

Memorandum Tomonlar zimmasiga huquqiy va moliyaviy majburiyatlarni yuklamaydi.

Mazkur Memorandumni qo'llash yoki talqin qilish natijasida yuzaga keladigan har qanday nizolar yoki tushunmovchiliklar Tomonlar o'rtasida o'zaro maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

Memorandum Tomonlar imzolagan kundan boshlab besh yil davomida amal qiladi.

Memorandum Toshkent shahrida 2024-yil 6-avgust kuni davlat tilida, ikki nusxada tuzildi va nusxalar bir xil yuridik kuchga ega.

**O'zbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot instituti
nomidan**

Boshliq



B.F. Berdialiyev

**Toshkent davlat yuridik
universiteti nomidan**

Rektor

I.R. Rustambekov

